Amaliyotdagi tekshiruv dasturlarini tahlil qilish zanjirning barcha bo'g'inlari bir xil darajada rasmiylashtirilmaganini ko'rsatadi. Birinchi va ikkinchi bo'g'inlar odatda mavjud: nazorat maqsadi me'yoriy hujjatdan olinadi, indikator esa ko'pincha bankning boshqaruv hisobotlarida allaqachon hisoblanadi. To'rtinchi bo'g'in — dalil — auditorlik ish qog'ozlariga qo'yiladigan talablar orqali qisman ta'minlanadi. Uchinchi va beshinchi bo'g'inlar esa, ya'ni test turi va qamrovi hamda baholash mezon, ko'p hollarda umuman belgilanmaydi va auditorning ixtiyoriga qoldiriladi. Aynan shu ikki bo'g'in xulosaning qayta takrorlanuvchanligini belgilaydi, shu sababli ularning yo'qligi butun zanjirni ishonchsiz qiladi.

2-jadval.
Nizomda belgilangan majburiy yo'nalishlarning metodik ta'minlanganligi


Nizom bandi	Majburiy yo'nalish	Miqdoriy mezon manbayi	Metodik ta'minlanganlik
19-band	Ichki nazorat, risklarni boshqarish va axborot tizimlari	Belgilanmagan; xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001, COBIT)	Past. Indikator va mezonlar bank ixtiyorida
22-band	Kapital monandligi va likvidlilik	2709-son Nizom (LQMK, SBMK); prudensial normativlar	Yuqori. Mezon aniq; test metodikasi belgilanmagan
23-band	Komplayens va jinoiy daromadlarga qarshi kurashish	Milliy qonunchilik, FATF tavsiyalari	O'rtacha. Talablar aniq, indikatorlar rasmiylashtirilmagan
24-band	Korporativ boshqaruv	3254-son Nizom	O'rtacha. Baholash sifat xarakteriga ega
25-band	Moliyaviy hisobot	Buxgalteriya hisobi standartlari	Yuqori
—	Kredit riski va aktivlar sifati	2696-son Nizom (tasniflash toifalari, zaxira normalari)	Yuqori. Mezon aniq; audit testi belgilanmagan

Jadval muhim nomutanosiblikni ochib beradi. Miqdoriy mezonlar bo'yicha eng yaxshi ta'minlangan sohalar — kredit riski va likvidlik — auditorlik testlari bo'yicha eng kam ta'minlangan sohalar bilan bir xil. Ya'ni bankda "nima to'g'ri hisoblanadi" degan savolga javob bor, "buni qanday tekshirish kerak" degan savolga esa yo'q. Bu holat quyida taklif etilayotgan yechimning mantiqiy asosini tashkil etadi: mezonlarni yangidan yaratish emas, balki mavjud me'yoriy mezonlarni tegishli audit testlari va indikatorlari bilan tizimli tarzda bog'lash talab etiladi.

Ilmiy yangilik: audit amallari matritsasi

Aniqlangan uzilishni bartaraf etish uchun kredit, likvidlik, operatsion, axborot xavfsizligi va komplayens risklarini indikatorlar, audit testlari, dalillar va baholash mezonlari asosida tekshiruvchi audit amallari matritsasi (AAM) ishlab chiqildi.

AUDIT AMALLARI MATRITSASINING TUZILISHI



Matritsa ikki o'lchamda quriladi. Gorizontaal o'lcham — yetti metodik element bo'lib, ular audit amalining to'liq tuzilmasini ta'minlaydi. Vertikal o'lcham esa bank uchun asosiy hisoblangan besh risk domenidan iborat. Ularning kesishmasida jami 28 ta tipik audit amali joylashadi, ularning har biri yagona formatda tavsiflanadi va shu sababli turli auditorlar, turli davrlar hamda turli bo'linmalar bo'yicha bir xil tarzda bajariladi.



Matritsaning yettinchi elementi — kamchilik pasporti bilan bog‘lanish — audit amalini audit siklining keyingi bosqichlariga ulaydi: agar xulosa balli 3 dan past bo‘lsa, amal avtomatik ravishda kamchilik yozuvini shakllantiradi va u tavsiyalar ijrosi monitoringiga o‘tadi.

3-jadval.

Kredit va likvidlik risklari bo'yicha audit amallari matritsasi

Kod	Nazorat maqsadi	Indikator	Audit testi	Dalil manbai	Baholash mezon
K-01	Kredit qarorlari vakolat chegaralarida qabul qilinishi	Vakolatdan tashqari berilgan kreditlar ulushi	Tanlanma muvofiqlik testi (30 ta yirik dose)	Kredit qo'mitasi bayonnomalari, ABS yozuvlari	0 % (har qanday og'ish — kamchilik)
K-02	Aktivlar sifati to'g'ri tasniflanishi	Qayta tasniflanishi lozim kreditlar ulushi; zaxira farqi	Auditor tomonidan mustaqil qayta tasniflash	Kredit dosesi, to'lov tarixi, moliyaviy hisobot	Tasniflash xatosi ≤ 2 %; zaxira farqi kapitalning 0,5 % idan kam
K-03	Garov ta'minoti haqqoniy va dolzarb bo'lishi	Qayta baholash muddati o'tgan garovlar ulushi; o'rtacha LTV	Hujjatli tekshirish + tanlab joyida ko'rish	Baholash hisobotlari, sug'urta polisleri, ro'yxatga olish hujjatlari	Muddati o'tganlar ≤ 5 %
K-04	Yashirin restrukturizatsiya yo'qligi	12 oyda ikki va undan ortiq marta shartlari o'zgargan kreditlar ulushi	Analitik protsedura, portfel bo'yicha to'liq qamrov	ABS dan olingan shartlar o'zgarishi jurnali	Aniqlangan holatlarda tasnif toifasi 100 % pasaytirilgan bo'lishi
K-05	Yirik risklar va affillangan shaxslar limitlariga rioya	Bitta qarz oluvchiga risk / kapital; affillangan shaxslarga jami risk	Qayta hisoblash + kontragentlar bog'liqligini tekshirish	Nazorat hisobotlari, ta'sischi reyestri	Prudensial normativ chegaralari
K-06	Kredit monitoringi o'z vaqtida o'tkazilishi	Muddatida bajarilgan monitoring hisobotlari ulushi	Tanlanma muvofiqlik testi	Monitoring hisobotlari, ABS sanalari	≥ 95 %
L-01	LQMK va SBMK to'g'ri hisoblanishi	Auditor qayta hisobi bilan bank hisoboti farqi, f.p.	Hisobot sanasiga to'liq qayta hisoblash	Hisobot formalari, ABS pozitsiya ma'lumotlari, 2709-son Nizom	Farq ≤ 1 f.p.; normativdan past bo'lmaslik
L-02	Yuqori likvidli aktivlar talablarga javob berishi	YLA tarkibida garovga qo'yilgan aktivlar ulushi	To'liq qamrovli tekshirish	Depozitariy ma'lumotlari, garov shartnomalari	0 %
L-03	Moliyalashtirish manbalari haddan tashqari to'planmasligi	Eng yirik 10 depozitorning majburiyatlardagi ulushi	Analitik protsedura	Depozit reyestri	Bank ichki limitiga muvofiqlik
L-04	Stress-testlar asoslangan va muntazam bo'lishi	Ssenariylar soni; o'tkazish davriyligi; kengashga taqdim etilganligi	Hujjatli tekshirish + farazlarni qayta hisoblash	Stress-test hisobotlari, ALCO bayonnomalari	Kamida choraklik, kamida uch ssenariy
L-05	Favqulodda moliyalashtirish rejasi ishlashga tayyor bo'lishi	Rejaning oxirgi sinovdan o'tgan sanasi; kunlik hisobot uzilishlari	Hujjatli tekshirish + intervyu	Kunlik likvidlilik hisobotlari, sinov bayonnomasi	Yiliga kamida bir marta sinov; uzilishsiz hisobot



4-jadval.

Operatsion, axborot xavfsizligi va komplayens risklari bo'yicha audit amallari matritsasi

Kod	Nazorat maqsadi	Indikator	Audit testi	Dalil manbai	Baholash mezon
O-01	Operatsion yo'qotishlar to'liq qayd etilishi	Bazaga kiritilmagan hodisalar ulushi	Ikki manbani solishtirish + tanlanma	Yo'qotishlar bazasi, bosh kitob, shikoyatlar reyestri	Soni bo'yicha ≤ 5 %; summasi bo'yicha ≤ 2 %
O-02	Vazifalar bo'linishi ta'minlanishi	Bir shaxsda to'plangan mos kelmaydigan huquqlar soni	ABS rollarini avtomatlashtirilgan tahlil, to'liq qamrov	Rollar matritsasi, tizim jurnali	Kritik konfliktlar 0
O-03	Biznes uzluksizligi ta'minlanishi	12 oyda o'tkazilgan sinovlar soni; RTO/RPO ga erishilganligi	Sinov natijalarini tekshirish + kuzatish	Sinov bayonnomalari, tizim jurnallari	Yiliga kamida bir sinov; kritik tizimlarda RTO bajarilishi
O-04	Autsorsing provayderlari nazorat qilinishi	SLA mavjud bo'lmagan shartnomalar ulushi; monitoring qamrovi	Shartnomalarni tanlanma tekshirish	Shartnomalar, provayder monitoringi hisobotlari	SLA 100 %; yiliga kamida bir monitoring
O-05	Naqd pul butligi ta'minlanishi	Tafovutlar soni va summasi	Auditor ishtirokidagi to'satdan inventarizatsiya	Inventarizatsiya dalolatnomalari, kassa kitobi	Tafovut 0
A-01	Kirish huquqlari dolzarb bo'lishi	Ishdan bo'shaganlarning faol hisob yozuvlari soni	HR bazasini katalog xizmati bilan solishtirish, to'liq qamrov	HR reyestri, katalog xizmati eksporti	Faol hisob 0; qayta ko'rib chiqish choraklik
A-02	Imtiyozli kirish nazorat qilinishi	Imtiyozli hisoblar soni; sessiyalar jurnalga olinganlik ulushi	Ro'yxatni to'liq tekshirish + tanlanma sessiya tahlili	PAM tizimi jurnallari	Jurnalga olinish 100 %; hisoblar shaxsiylashtirilgan
A-03	O'zgarishlar tasdiqlangan tartibda kiritilishi	Tasdiqlanmagan va favqulodda o'zgarishlar ulushi	Ishlab chiqarish muhiti jurnalini so'rovnomal bilan solishtirish	ITSM tizimi yozuvlari, relizlar jurnali	Tasdiqlanmaganlar 0; favqulodda ≤ 5 %
A-04	Ma'lumotlar tiklanishi kafolatlanishi	Muvaffaqiyatli tiklash testlari ulushi	Auditor kuzatuvida tiklashni sinovdan o'tkazish	Zaxira jurnallari, test bayonnomasi	Kritik tizimlar bo'yicha 100 %
A-05	Kiberinsidentlar o'z vaqtida aniqlanishi	Javob berishning o'rtacha vaqti; aniqlangan va xabar berilgan insidentlar nisbati	Insidentlar reyestrini SIEM signallari bilan solishtirish	SIEM jurnallari, insident kartochkalari	Reglament muddatlari 100 % bajarilishi
A-06	Zaifliklar o'z vaqtida bartaraf etilishi	Kritik zaifliklarni bartaraf etish o'rtacha muddati	Skanerlash hisobotlarini tahlil qilish	Zaiflik skanerlari hisobotlari, bartaraf etish topshiriqlari	Kritik zaifliklar ≤ 30 kun
KM-01	Mijozni identifikatsiya to'liq bo'lishi	To'liqsiz yoki eskirgan anketalar ulushi; EDD qamrovi	Tanlanma dose tekshiruvi + bazani avtomatlashtirilgan tahlil	Mijoz doselari, ABS maydonlari	To'liqsizlar ≤ 2 %; EDD 100 %
KM-02	Shubhali operatsiyalar aniqlanishi va xabar qilinishi	Signallarni ko'rib chiqish muddati; muddatida yuborilgan xabarlar ulushi	Signallar reyestridan tanlanma + qarorlarni qayta ko'rib chiqish	Monitoring tizimi yozuvlari, xabarlar nusxalari	Muddat 100 % bajarilishi
KM-03	Sanksiya skriningi to'liq ishlashi	Skrining qamrovi; ro'yxatlarni yangilash kechikishi	Nazorat namunasini tizimga yuborish + qamrovni solishtirish	Skrining tizimi jurnallari, ro'yxat versiyalari	Qamrov 100 %; yangilanish ≤ 24 soat
KM-04	Ichki hujjatlar meyoriy o'zgarishlarga moslashtirilishi	O'zgarishdan keyin yangilanishgacha o'rtacha kunlar	O'zgarishlar ro'yxatini ichki hujjatlar reyestri bilan solishtirish	Normativ monitoring reyestri, buyruqlar	≤ 30 kun
KM-05	Mijozlarga axborot to'liq oshkor qilinishi	Xarajat stavkasi noto'g'ri ko'rsatilgan shartnomalar ulushi	Shartnomalarni tanlanma tekshirish + qayta hisoblash	Shartnomalar, shikoyatlar reyestri	0 % xato
KM-06	Xodimlar komplayens bo'yicha tayyorlanishi	Muddatida o'qitishdan o'tgan xodimlar ulushi	HR bazasi bo'yicha to'liq tahlil	O'quv jurnallari, test natijalari	≥ 95 %



Nazorat samaradorligini miqdoriy baholash

Har bir amal bo'yicha auditor uch balli shkala asosida xulosa chiqaradi: **3 ball** — mezon to'liq bajarilgan, nazorat samarali; **2 ball** — ahamiyatsiz og'ishlar mavjud, nazorat cheklangan darajada samarali; **1 ball** — mezon bajarilmagan, nazorat samarasiz. Domen va bank bo'yicha nazorat samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

$$NSK = \Sigma(b \times v) / (3 \times \Sigma v) \times 100 \%,$$

bu yerda b — amal bo'yicha xulosa balli (1–3), v — amalning vazni. Vazn odatda 1 ga teng deb olinadi va zarur hollarda prudensial ahamiyatga ega amallar uchun oshiriladi. Baholash chegaralari: 85 % va undan yuqori — samarali; 70–84 % — qoniqarli; 55–69 % — takomillashtirish talab etiladi; 55 % dan past — samarasiz.

Matritsani shartli ma'lumotlar asosida aprobatiya qilish

Modelning ishlashini ko'rsatish uchun shartli bankda matritsaning barcha 28 ta amali bo'yicha o'tkazilgan tekshiruv natijalari keltiriladi. Ma'lumotlar shartli bo'lib, faqat hisob mantig'ini namoyish etish maqsadida tuzilgan.

5-jadval.
Risk domenlari bo'yicha nazorat samaradorligi bahosi (shartli misol)

Risk domeni	Amallar	3 ball	2 ball	1 ball	Σb	Maks.	NSK, %	Baho
Kredit riski	6	2	3	1	13	18	72,2	Qoniqarli
Likvidlik riski	5	3	2	0	13	15	86,7	Samarali
Operatsion risk	5	1	3	1	10	15	66,7	Takomillashtirish talab etiladi
Axborot xavfsizligi	6	1	2	3	10	18	55,6	Takomillashtirish talab etiladi
Komplayens riski	6	3	2	1	14	18	77,8	Qoniqarli
JAMI	28	10	12	6	60	84	71,4	Qoniqarli

Natijalar uchta xulosani beradi.

Birinchisi — agregat bahoning yashiruvchi ta'siri. Bank bo'yicha umumiy ko'rsatkich 71,4 % ni tashkil etadi va "qoniqarli" toifasiga tushadi. Domenlar kesimida esa tarqoqlik 31 foiz punktni tashkil qiladi: likvidlik bo'yicha nazorat samarali (86,7 %), axborot xavfsizligi bo'yicha esa samarasizlik chegarasida (55,6 %). Umumiy bahoni kuzatuv kengashiga yagona ko'rsatkich sifatida taqdim etish shu sababli metodik jihatdan noto'g'ri: baho har doim domenlar kesimida keltirilishi lozim.

Ikkinchisi — samarasiz nazoratlarning to'planishi. Bir ball olgan oltita amaldan uchtasi axborot xavfsizligi domeniga to'g'ri keladi. Bu tasodifiy tarqalish emas, balki domenning tizimli zaifligi belgisi bo'lib, keyingi yillik rejada ushbu domenning ustuvorligini oshirishga bevosita asos beradi.

Uchinchisi — mezonlarning aniqligi va bahoning aniqligi o'rtasidagi bog'liqlik. Eng yuqori baho olingan domen (likvidlik) miqdoriy mezonlari me'yoriy hujjatda eng aniq belgilangan domendir. Bu qonuniyat matritsaning asosiy g'oyasini tasdiqlaydi: nazorat aniq o'lchanadigan mezonga ega bo'lsa, u yaxshiroq bajariladi, chunki uning bajarilmagani darhol ko'rinadi.

Matritsani audit siklining boshqa bosqichlariga ulash

Matritsa alohida vosita emas, balki audit siklidagi bo'g'in sifatida ishlaydi. Uning natijalari uch yo'nalishda foydalaniladi. Domen bo'yicha NSK ko'rsatkichi audit obyektlarini ustuvorlashtirishda nazorat muhitining holatini tavsiflovchi kirish parametri bo'lib xizmat qiladi. Bir ball olgan har bir amal avtomatik ravishda kamchilik yozuvini shakllantiradi va uning sababi, oqibati hamda qoldiq riski qayd etiladi. Kamchilik bo'yicha berilgan tavsiya esa ijro monitoringiga o'tadi va uning bajarilishi keyingi tekshiruvda xuddi shu amal bo'yicha qayta baholanadi. Shu tariqa, bir xil amal davrdan davrga bir xil tarzda bajariladi va uning natijasi dinamikada kuzatiladi — bu esa nazorat holatining yaxshilanayotgani yoki yomonlashayotganini obyektiv ko'rsatish imkonini beradi.

Matritsaning nazariy va amaliy ahamiyati

Matritsaning nazariy ahamiyati audit amalini auditorning kasbiy mulohazasidan rasmiylashtirilgan tuzilmaga o'tkazishida namoyon bo'ladi. Bu kasbiy mulohazani inkor etmaydi — u mulohazani boshqa nuqtaga ko'chiradi: auditor endi "buni qanday tekshiraman" degan savolni emas, "aniqlangan og'ish nimani anglatadi" degan savolni hal qiladi. Birinchi savol takrorlanuvchi va shu sababli standartlashtirilishi mumkin; ikkinchisi noyob va shu sababli malaka talab qiladi. Resurslarni ikkinchi savolga jamlash ichki auditning sifatini oshiradi.



Ikkinchi nazariy natija — dalil turi bilan xulosa kuchi o'rtasidagi bog'liqlikning rasmiylashtirilishi. Matritsada har bir amal uchun dalil manbai oldindan belgilangani sababli, dalil kuchi past bo'lgan amal bo'yicha yuqori ishonch bilan xulosa chiqarish imkoniyati istisno qilinadi. Bu auditorlik skeptitsizmini metodikaga singdirishning amaliy usulidir.

Amaliy jihatdan matritsa uchta natija beradi: tekshiruv dasturini tuzish vaqti sezilarli darajada qisqaradi, chunki dastur matritsadan tegishli amallarni tanlash yo'li bilan yig'iladi; yangi auditorni tayyorlash muddati qisqaradi, chunki metodika hujjatlashtirilgan; nazorat holati birinchi marta miqdoriy va dinamikada kuzatiladigan ko'rinishga keladi.

Xalqaro standartlar va milliy me'yoriy baza bilan muvofiqlik

Matritsa amaldagi talablarga zid emas, balki ularni bir-biriga ulaydi. IIAning 9.3-standarti metodologiyalarni belgilashni talab qiladi — matritsa aynan shunday hujjatlashtirilgan metodologiyadir. 13- va 14-tamoyillar topshiriqni rejalashtirish va bajarishda yetarli dalil to'plashni talab qiladi — matritsaning to'rtinchi va beshinchi elementlari buni oldindan ta'minlaydi. Nizomning 19, 22, 23, 24 va 25-bandlarida sanab o'tilgan majburiy yo'nalishlarning har biri matritsaning tegishli domeni bilan qoplanadi. 2696- va 2709-sonli nizomlarda belgilangan miqdoriy mezonlar matritsaning oltinchi ustunida bevosita baholash mezonlari sifatida ishlatiladi — bu prudensial talab bilan audit amali o'rtasidagi bog'lanishni rasmiylashtiradi.

Joriy etish shartlari va cheklovlari

Matritsaning samarali ishlashi uch shartga bog'liq. Birinchisi — ma'lumotlarga kirish. Amallarning sezilarli qismi to'liq qamrovli avtomatlashtirilgan tahlilga asoslangan, bu esa ichki audit xizmatiga avtomatlashtirilgan bank tizimi, katalog xizmati, ITSM va monitoring tizimlaridan ma'lumotlarni mustaqil olish imkoniyati berilishini talab qiladi. Bunday kirish bo'lmasa, amallar tanlanma tekshiruvga tushib qoladi va dalil kuchi pasayadi. Ikkinchisi — matritsani muntazam yangilash. Mezonlar me'yoriy hujjatlardan olingani sababli, har bir normativ o'zgarish matritsada aks etishi lozim; buning uchun normativ monitoring jarayoni bilan bog'lanish zarur. Uchinchisi — vaznlarni kalibrlash. Vaznlar bankning risk profiliga moslab belgilanishi va kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

Modelning cheklovlarini ham e'tirof etish lozim. Uch balli shkalani qo'llash qulay, ammo dag'al: "ahamiyatsiz og'ish" va "sezilarli og'ish" o'rtasidagi chegara auditorning mulohazasiga bog'liq bo'lib qoladi; buni kamaytirish uchun har bir amal bo'yicha ikkinchi ball beriladigan og'ish chegarasini raqamli ifodalash tavsiya etiladi. Matritsa tipik amallarni qamrab oladi va bankka xos noyob jarayonlarni qoplamaydi — u yopiq ro'yxat emas, balki asosiy o'zak sifatida qaralishi kerak. Nihoyat, 28 ta amal barcha banklar uchun universal emas: mikromoliya banklari va investitsiya yo'nalishidagi banklarda domenlar tarkibi va vaznlarning farq qilishi tabiiy.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchi, audit amallari ular isbotlaydigan jihatiga ko'ra ierarxiyani tashkil etadi: so'rov va hujjatli tekshirish nazoratning mavjudligini, qayta bajarish va analitik protseduralar esa uning amalda ishlayotganini isbotlaydi. Bank ma'lumotlarining mashinada o'qiladigan shaklda mavjudligi uslubiy og'irlik markazini to'liq qamrovli amallarga siljitish imkonini beradi.

Ikkinchidan, audit amali oltita bo'g'indan iborat zanjir bo'lib, amaliyotda uning uchinchi va beshinchi bo'g'inlari — test turi va baholash mezonlari — ko'p hollarda rasmiylashtirilmaydi. Aynan shu ikki bo'g'in xulosaning qayta takrorlanuvchanligini belgilaydi, shu sababli ularning yo'qligi butun zanjirni ishonchsiz qiladi. Nizomda belgilangan majburiy yo'nalishlar tahlili nomutanosiblikni ko'rsatdi: miqdoriy mezonlar bo'yicha eng yaxshi ta'minlangan sohalar audit testlari bo'yicha eng kam ta'minlangan sohalar bilan bir xil.

Uchinchidan, mazkur bo'shliqni to'ldirish maqsadida ishlab chiqilgan audit amallari matritsasi besh risk domenini yetti metodik element kesimida birlashtiradi, 28 ta tipik audit amalini yagona formatda tavsiflaydi va nazorat samaradorligini $NSK = \Sigma(b \times v) / (3 \times \Sigma v) \times 100 \%$ formulasi bo'yicha miqdoriy baholash imkonini beradi.

To'rtinchidan, shartli ma'lumotlar asosidagi aprobatziya agregat bahoning yashiruvchi ta'sirini ko'rsatdi: bank bo'yicha 71,4 % li "qoniqarli" natija ortida domenlar bo'yicha 31 foiz punktik tarqoqlik mavjud va samarasiz nazoratlarning yarmi bitta domenda — axborot xavfsizligida to'plangan. Shuningdek, miqdoriy mezonlari eng aniq belgilangan domen eng yuqori bahoni olgani aniqlandi, bu esa mezon aniqligi bilan nazoratning bajarilishi o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Tijorat banklariga audit amallari matritsasini ichki audit metodologiyasining tarkibiy qismi sifatida ishlab chiqib, kuzatuv kengashida tasdiqlash tavsiya etiladi. Matritsada har bir amal uchun oltita bo'g'inning barchasi



— nazorat maqsadi, indikator, test turi va qamrovi, dalil manbai, baholash mezonlari va xulosa shkalasi — belgilangan bo'lishi shart.

Tekshiruv dasturlarini erkin matn shaklida emas, balki matritsadan amallarni tanlash yo'li bilan shakllantirish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu tekshiruv qamrovini asoslash va turli davrlardagi natijalarni qiyoslash imkonini beradi.

Ichki audit xizmatiga avtomatlashtirilgan bank tizimi, katalog xizmati, ITSM va monitoring tizimlaridan ma'lumotlarni mustaqil ravishda olish huquqini ichki hujjatlarda mustahkamlash tavsiya etiladi, chunki matritsadagi amallarning sezilarli qismi to'liq qamrovli tahlilga asoslangan.

Kuzatuv kengashi va audit qo'mitasiga taqdim etiladigan hisobotlarda nazorat samaradorligi bahosini yagona umumiy ko'rsatkich sifatida emas, balki risk domenlari kesimida, tarqoqlik ko'rsatkichi bilan birga keltirish taklif etiladi.

Markaziy bankning 3302-son Nizomiga ichki audit metodologiyasi hujjatlashtirilgan bo'lishi va unda majburiy yo'nalishlarning har biri bo'yicha baholash mezonlari belgilanishi to'g'risidagi talabni kiritish maqsadga muvofiq. Bu banklararo taqqoslanuvchanlikni ta'minlaydi.

Matritsani bir necha tijorat bankining haqiqiy ma'lumotlari asosida sinovdan o'tkazish, amallar vaznlarini statistik kalibrash hamda uni sug'urta, lizing va investitsiya operatsiyalari domenlari bilan kengaytirish keyingi tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni: 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4581969> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/14-son qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan, 2026-yil 18-iyulda 3902-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-5431666> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/5-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; keyingi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan, jumladan, 2025-yil 23-dekabrda 2696-5-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan tahrirda [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-2703053> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 13-avgustda 2709-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/7-son qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan, 2026-yil 18-iyulda 2709-9-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-2720359> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 25-maydagi 12/8-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizom: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyulda 3254-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan; O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2026-yil 8-iyuldagi 19/8-son qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan, 2026-yil 18-iyulda 3254-1-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4888804> (murojaat sanasi: 07.08.2026).
6. Basel Committee on Banking Supervision. The Internal Audit Function in Banks. — Basel: Bank for International Settlements, 2012. — URL: <https://www.bis.org/publ/bcbbs223.pdf> (accessed: 07.08.2026).
7. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Management of Credit Risk. — Basel: Bank for International Settlements, 2000. — 30 p.
8. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. — Basel: Bank for International Settlements, 2008. — 44 p.
9. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. — Basel: Bank for International Settlements, 2013. — 75 p.
10. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Net Stable Funding Ratio. — Basel: Bank for International Settlements, 2014. — 17 p.



11. Basel Committee on Banking Supervision. Revisions to the Principles for the Sound Management of Operational Risk. — Basel: Bank for International Settlements, 2021. — 23 p.
12. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. — Lake Mary, FL: The Institute of Internal Auditors, 2024. — Effective 9 January 2025. — URL: <https://www.theiia.org/en/standards/2024-standards/global-internal-audit-standards/> (accessed: 07.08.2026).
13. Financial Action Task Force (FATF). International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism and Proliferation: The FATF Recommendations. — Paris: FATF, 2012. — As amended October 2025.
14. ISO/IEC 27001:2022. Information Security, Cybersecurity and Privacy Protection — Information Security Management Systems — Requirements. — Geneva: International Organization for Standardization, 2022.
15. ISACA. COBIT 2019 Framework: Governance and Management Objectives. — Schaumburg, IL: ISACA, 2019.
16. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). Internal Control



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>